

YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLİSH VA JINOYATCHILIKNI BARTARAF ETISH

Salomov Temur Faxriddinovich

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi.

alexrussoinbox13@gmail.com

Telefon: +998(93) 620 14 30

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10818956>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda voyaga yetmaganlar hamda yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishning chora-tadbirlari hamda samarali usullari tahlil etilgan. Yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning sabablari yoritilib, unga tasir etuvchi omillar o‘rganiladi va misollar keltiriladi. Yoshlar jinoyatchiligi avvalo yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlikni oldini olishdan boshlanishiga ilmiy mazmunda to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, yoshlar, huquqbuzarlik, yoshlar jinoyatchiligi, yoshlar yetakchisi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktik chora-tadbir.

ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ МОЛОДЕЖНОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЛИКВИДАЦИЯ ПРЕСТУПНОСТИ

Аннотация. В данной статье анализируются меры и эффективные методы профилактики правонарушений и преступлений, совершаемых сегодня среди несовершеннолетних и молодежи. Выделены причины правонарушений и преступлений, совершаемых среди молодежи, изучены влияющие на них факторы и приведены примеры.

В научном контексте отмечено, что молодежная преступность начинается с профилактики правонарушений среди молодежи.

Ключевые слова: несовершеннолетние, молодежь, правонарушения, молодежная преступность, молодежный лидер, профилактика преступности, профилактические меры.

YOUTH CRIME PREVENTION AND CRIME ELIMINATION

Abstract. This article analyzes the measures and effective methods of preventing offenses and crimes committed among minors and young people today. The causes of offenses and crimes committed among young people are highlighted, the factors affecting them are studied and examples are given. It was pointed out in a scientific context that youth crime begins with the prevention of delinquency among young people.

Key words: minors, young people, delinquency, youth crime, youth leader, crime prevention, preventive measures.

Bugungi kunda yoshlar ta’lim va tarbiyasi davlat siyosatining dolzARB masalalaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiliy o‘zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol – jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish ustuvor maqsadimizdir.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yosh oilalar mustahkamligini ta’minlash, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, yoshlarni madaniyat, san’at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni o‘z ichiga olgan besh muhim tashabbus amalga oshirilmoqda.

Ammo ming afsuski yurtimizda ana shunday yaratilgan imkoniyatlardan foydalanish o‘rniga qimmatbaho vaqtlarini bekorchi va yod narsalarga sarflab buning oqibatida huquqbuzarlik va jinoyat sodir etib kelayotgan voyaga yetmaganlar va yoshlar ham uchrab turibdi.

Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlikni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishni eng avvalo oiladan boshlash kerak, oilani mustahkamlash kerak, azaldan ota-bobolarimiz tomonidan o‘tib kelayotgan bir naql bor: “Vatan ostonadan boshlanadi”. Farzand oilada dunyoga kelgan vaqtidan boshlab shu oilaning tarbiyasi ila kamol topib boradi, shu oilada muhit qanday bo‘lsa shu muhitda o‘sadi. Shu boisdan avvalo oilani mustahkam qo‘rg‘onga aylantirmoq lozim, farzand katta bo‘lgani sari ota-onasi u uchun idial shaxs sifatida ko‘rina boshlaydi, ota-ona oilada o‘qimishli, ziyoli shaxs bo‘ladigan bo‘lsa farzand ham ulardan o‘rnak olib boradi. Biroq bugungi kunda jamiyatimizning ayrim oilarida ota-onaning mavjud uquvsizligi, farzandga bo‘lgan etiborsizligi, oiladagi o‘zaro ichki nizolar, ota-onaning kelishmovchiligi, kunda oilada takrorlanib kelayotgan janjallar natijasida ushbu oiladagi farzandlar tashqi muhitga qarab qochishni boshlaydilar va tashqi muhitdagи ayrim illatlarga qo‘shilib qolishlari natijasida astasekinlik bilan oxiri berk bo‘lgan qorong‘u yo‘lak sari yura boshlaydilar, buning oqibatida esa huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishni boshlaydilar.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni xohlaydi. Tinchlik bo‘lgan joyda baraka va rivojlanish bo‘ladi. E’tirof etish kerakki, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni bir qismi tayin bir o‘qish yoki ish joyiga ega bo‘lmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Buning oldini olishda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlanirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan jinoyatchilikni oldini olishda mahalla instituti imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur hisoblanadi. Yoshlar bilan ishslashning yangicha boshqaruva mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishslashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida bilan har bir mahallada “Yoshlar yetakchisi” lavozimi joriy etilib ularga mahalladagi har bir yosh bilan individual o‘rganish olib borgan holda bandligi ta’minlanmagan yoshlarni istak va qiziqishlarini inobatga olgan holda yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ish bilan ta’minlash kabi bir qator aniq vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi PQ-4075-sonli Qarori bilan har bir mahallada “Fidokor yoshlar” jamoatchilik patrul guruhlari tashkil etilib, ushbu guruh tarkibiga:

- mahalladagi muddatli harbiy xizmatni o‘tash niyatida mudofaa ishlari bo‘yicha tuman bo‘limiga murojaat qilgan harbiy xizmatga chaqiriluvchilar;

- respublika oliv harbiy ta’lim muassasalariga, shuningdek ichki ishlar organlarining ta’lim muassasalariga kirish istagini bildirgan nomzodlar;

- ichki ishlar organlarida xizmat qilish istagini bildirgan nomzodlar orasidan shakllantirish nazarda tutilib, ushbu guruhga a’zo bo‘lgan yoshlar bilan mahallada bu mening uyim, bu mening mahallam, bu mening vatanim, men mahallamda jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘ymayman shiori ostida tungi vaqtida profilaktika inspektori bilan birga belgilangan yo‘nalish bo‘yicha umumiy 100 soatdan kam bo‘Imagan vaqt miqdorida patrullik qilgan yoshlarga profilaktika inspektori va mahalla raisi bilan birgalikda xizmatga, o‘qishga tanlov o‘tkazishda inobatga olinadigan tavsiyanomalar berilishi bu ham yoshlar uchun katta imkoniyatlardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni ga asosan quyidagilar yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar tizimiga kiradi:

ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;

davlat sog‘liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;

jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha organlar;

madaniyat organlari;

mehnat organlari;

prokuratura organlari;

ichki ishlar organlari;

adliya organlari;

mudofaa ishlari bo‘yicha organlar.

Yuqorida belgilab o‘tilgan ushbu davlat organlarining o‘z vazifalari aniq belgilab berilgan bo‘lib, ushbu davlat organlari tomonidan bugungi kunda qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan sport va talim yo‘nalishida bugungi kunda yoshlarimiz respublika miqyosida o‘tkazilayotgan musobaqalar, nafaqat respublika balki Osiyo davlatlari hamda jahon arenalarida yurtimiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarib kelishmoqda, bu esa ushbu davlat organlari tomonidan ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Shu boisdan ham bugungi kunga kelib yoshlarimiz tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyat sodir etish holatlari kamayishiga erishildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ammo ana shunday yutuqlarimiz bilan faxrlanib turgan bir vaqtning o‘zida ming afsuski ayrim yoshlarimiz o‘rtasida bugungi kunda qonun buzish holatlari, ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish holatlari va eng achinarlisi yoshlarimiz tomonidan jinoyat sodir etish holatlari haligacha davom etib kelmoqda. Jumladan yoshlarimiz tomonidan bungi kunda:

- guruh-guruh bo‘lib maishatbozlik qilish;

- tungi vaqtarda ko‘ngilochar joylarda bo‘lib qarovsiz holatda qolib ketish;

- tungi vaqtarda nazoratsiz holda ko‘chalarda bemaqsad yurgan holda har-xil turdag'i huquqbuzarlik sodir etilish holatlariga qo‘shilib qolish;

- giyohvandlik va psixatrop moddalarni istemol qilish uning noqonuniy aylanmasiga aralashish;

- o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida katta miqdorda pul topish evaziga o‘g‘irlilik va firibgarlik qilish holatlari;

- ota-onalarni farzandga bo‘lgan etiborsizligi va farzandini qarovsiz qoldirishi oqibatida voyaga yetmagan bolalar tomonidan avtomobil boshqarish uchun huquq beruvchi haydovchilik guvohnomasi yo‘q bo‘la turib yashash xonadonida mavjud bo‘lgan avtomashinani boshqarib ko‘chaga chiqib ketishi va yo‘llarda odam o‘limi bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarini sodir etayotganlari;

- ko‘chalarda guruhbozlik qilish, ko‘pchilik bo‘lib o‘zaro sama sudlar qilish va buning natijasida og‘ir va o‘ta og‘ir turdagи jinoyatlarni sodir etilishi kabi holatlar bugungi kunda yoshlarimiz o‘rtasida uchrab turganligi ming afsuski haqiqat.

Shu boisdan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan bunday huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishda bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasining quyidagi:

*huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi;

*huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi;

*huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi;

*huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi kabi turlarini qo‘llagan holda yoshlarni ma’lum toifalarga bo‘lgan holda ular bilan doimiy tarzda samarali profilaktik tadbirlarni amalga oshirib borish lozim. Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekistonda bir qator keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan yoshlarga oid davlat siyosati ilgari surilmoqda, buning misoli o‘laroq yurtboshimiz tomonidan O‘zbekistonda 2024-yilni “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash” yili deya e’lon qilinishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan bugungi kunda yoshlarga oid davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplarini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish lozim

*ochiqlik va shaffoflik;

*yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;

*yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

*ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;

*yoshlarning kmsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi.

Shuningdek mahallalarda yoshlarni doimiy tarzda o‘rganib borgan holda dunyo qarashi o‘zgargan, ota-onaning nazoratidan chetda qolib ketgan, yoshlar bilan mahallada keng jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yib ushbu toifadagi yoshlar bilan doimiy o‘rganish ishlarini olib borgan holda uni o‘z yo‘lini topib ketishiga ko‘maklashish lozim bo‘ladi. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida sport va ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratish lozim. Har bir mahallada yoshlarni bo‘s sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun qulay sharoitga ega, yoshlar shug‘ullanishlari uchun sport zallar hamda turli xildagi to‘garaklarni doimiy tarzda tashkil etib borish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bola dunyoga kelganidan boshlab unga g‘amxo‘rlik qilish, sog‘lom va to‘g‘ri tarbiya hamda zamonaviy ta’lim olishini ta’minlash – ota-onaning farzand oldidagi asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Har qaysi ota-onsa o‘z farzandlariga nisbatan

mutasaddi va mas’ul ekanini unutmasligi lozim. Zero, bu farzand kelajagi, uning komil inson bo‘lib voyaga yetishida eng muhim va zarur omildir.

Demak, bu borada hamma aybni u yoki bu idoraga, tashkilotga yuklab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu masalada hammamiz javobgarmiz. Zotan, yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar va jinoyatlarning oldini olish uchun nafaqat ota-onas, mahalla, balki barcha tashkilot va idoralar ham mas’uldir.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2020-yil 18-maydagi “Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 274-IV-ton Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-ton Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-ton.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minalash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4075-ton Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.08.2021-y., 07/21/5235/0840-ton, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-ton.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-ton.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-ton.

Internet saytlari

6. www.lex.uz
7. www.norma.uz
8. www.huquqiportal.uz